

## JADID HAKAKATI

Fayzullayeva Sevinch  
Sag'dullayeva Laylo  
Abdunosirova Shahrizoda

Rossiya imperiyasi tomonida O'rta Osiyo xonliklarining zabt etilishi suhbu hududlarning tanazzulga yuz tutishiga, jahonning rivojlangan davlaridan ko'p sohalarda ortda qolishiga, milliy qadriyat va urf-odatlarini yuqotishiga olib keldi. Har qaysi sohada, xususan, maorif ya'ni ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot sohalarida ham qoloqliklarga sabab bo'ldi

Har bir jamiyatdagi o'zgarishlarni, iqtisodi-ijtimoiy ahvolni, xalqning hayot tarzini hammadan birinchi bo'lib ziyoli qatlam ang yetadi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasiga kiruvchi bir necha hududlarda, xususan, Qrim, Turkiston, Kavkazorti, protektoratga aylantirilgan Buxoro amirligi va Xiva xonligida ziyolilar harakati boshlandi. Bu ma'rifatparvarlik harakati "Jadid harakati" deya nom oldi.

Qrim-tatar ma'rifatparvari bo'lgan **Ismoil G'aspirali** butun turkiy xalqlar orasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. U diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan, jahon mamlakatlari siyosati bilan yaqindan tanishgan, bir nechta xorijiy tillarni bilgan, turkiy xalqlarning madaniyatini o'rgangan edi. Uning jadidchilik faoliyati nazar soladigan bo'lsak, u 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroyda birinchi jaded maktabini ochadi. Uning 1888-yilda chop etilgan "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" asri bor.

"Jadid" so'zi arabchadan olingan bo'lib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. Jadidchilar o'z oldiga qo'ygan maqsadlari quyidagilardan iborat edi: -Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotdan ozod qilish - "Usuli qadim"ni inkor qilgan holda o'lkani, xalqni, millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish - Milliy davlat bunyod etish - Konstitutsion, parlament usulidagi ozod va farovon jamiyat barpo etish - Turkiy tillarga davlat maqomini berish.

**Mahmudxo'ja Behbudiy** (To'liq ismi - **Mahmudxo'ja Behbudiy ibn Behbudxo'ja**) dramaturg, noshir, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakati yetakchilaridan biri.

U Yassaviy avlodidan. 18 yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, mufti darajasiga ko'tariladi. Behbudiy haj safarida bo'lgan chog'ida Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan (1899-1900). Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Behbudiy Qozon va Ufaga borib (1903-1904), u yerdagi yangi usul maktablari

bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo'lga qo'yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi.

Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg'in qo'shildi. Aslida bu faoliyat 1906-yildan boshlangan. Shu yili „Rusiya musulmonlari ittifoqi“ning Nijniy Novgorodda o'tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi. Toshkentda bo'lib o'tgan (1917) Turkiston musulmonlarining qurultoyida ishtirok etib, nutq so'zladi. U musulmonlar orasidagi har qanday ixtilofga qarshi chiqdi. Behbudiy shu qurultoyda o'lka musulmonlar sho'rosining raisi etib saylandi. 1917-yil 26-noyabrda Behbudiyda Qo'qonda o'lka musulmonlarining 4-favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o'tar kechasi „Turkiston muxtoriyati“ e'lon qilindi. Uning g'oyaviy asoschilaridan biri Behbudiy edi. Muxtoriyat sho'rolar tomonidan vahshiyona bostirildi. Behbudiy may oyining boshlarida Samarqandga qaytadi. U yerda ko'p tura olmay Toshkentga keladi. Turkiston sho'rolar hukumati rahbarlari bilan muzokara olib borishga urinadi, ammo natija chiqmaydi. 1919-yilning erta bahorida mamlakatdan chiqib ketayotganida Shahrisabzda Inqilobiy favqulodda komissiya ayg'oqchilari ko'magida Buxoro amirligi odamlari tomonidan qo'lga olinadi, hamrohlari Muhammadqul va Mardonqul bilan birgalikda Qarshida zindonga tashlanadi va qatl qilinadi. Bu voqea Samarqandda bir yildan keyin ma'lum bo'ladi. Fitrat, Cho'lpon, Ayniy va boshqa shoirlar Behbudiyga atab marsiyalar yozganlar. Qarshi shahri 1926–1937-yillar davomida Behbudiy nomi bilan atalgan.

**Munavvarqori**, Abdurashidxonov Munavvar qori O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yo'l boshchisi, XX asr o'zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib va shoir.

Yevropa savdo-sanoat, ilm-fanini o'rganishga chaqirgan, ma'naviy qoloqlikni qoralagan. Chor va sho'ro hukumatlari olib borgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi izchil kurash olib borgan. Sho'royi Islom" tashkilotining ideologi, rahbari, shuningdek, „Turk adam markaziyat“, „Ittihad va taraqqiyot“, "Milliy ittihad", „Nashri maorif“ kabi jamiyat, firqa va tashkilotlar faoliyatiga rahbarlik qilgan. U vijdon erkinligini inkor etmagan dunyoviy demokratik davlat tarafdori bo'lgan. Shu sababli Qo'qon shahrida tashkil topgan Turkiston muxtoriyatini (1917) qo'llab-quvvatlagan. Umr bo'yi o'z Vatanini mustaqil ko'rishni istagan<sup>[2]</sup>.

Munavvarqori 1929-yil 6-noyabrda nohaq millatchilikda ayblanib, qamoqqa olinadi. Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilingan va Vagankova qabristoniga dafn etilgan. 1991-yilda rasman reabilitatsiya qilingan

**Cho'lpon** — shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi. Dastlab, madrasada (1908-1912), so'ngra rus-tuzem maktabida (1912-1914)



## "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



o'qigan. Sharq mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish va jadid matbuotini kuzatish yo'li bilan adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimni oshirgan.

Adabiy ijodi 1913-1914-yillarda Andijonning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida xabarlar yozish bilan boshlangan. 1914-yil Toshkentda Munavvar Qori Abdurashidxonov va Ubaydulla Xo'jayev bilan tanishish Cho'lponning milliy uyg'onish harakati namoyandasi sifatida shakllanishida muhim omil bo'lgan. Cho'lpon „Sadoi Turkiston“ gazetasida dastlabki „Turkistonli qardoshlarimizga“ she'ri, „Qurboni jaholat“, „Do'xtir Muhammadyor“ hikoyalari va „Adabiyot nadir?“ maqolasini e'lon qilib (1914), shu davr adabiyoti namoyandalari safidan o'rin egallagan. Turkiston aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashayotganining asosiy sababini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatida ko'rgan Cho'lpon boshqa jadidlar qatori, o'z asarlari bilan xalqning madaniy va ma'rifiy saviyasini ko'tarishga kirishgan.

1917-yil Fevral inqilobining ro'y berishi taraqqiyparvar ziyolilar dunyoqarashini o'zgartirib yubordi. Ular, shu jumladan, Cho'lpon mustaqillik uchun kurash endi targ'ibiy-tashviqiy davridan amaliy faoliyat bosqichiga o'tganini angladilar. Cho'lpon Turkiston muxtoriyati hukumatining barpo etilishida faol ishtirok etib, muxtoriyatni sharaflovchi „Ozod turk bayrami“ she'rini yozdi va bu she'r o'zbek davlatchiligi tarixida ilk madhiya bo'ldi. Shu davrda Turkistondagi ko'p millatli ziyolilar o'rtasida federalizm g'oyasi keng tarqalgani sababli Cho'lpon ayni paytda Z.Validiy bilan birga Orenburgga borib, Boshqirdiston muxtoriyat hukumatining tashkil etilishida ham ishtirok etdi. Federalistlarning fikrlariga ko'ra, Turkiston va Volga bo'yidagi turkiy xalqlar o'z muxtoriyat hukumatlarini barpo etganlaridagina bu hukumatlarning bolsheviklar tomonidan tan olinishi va birgalikda himoyalinishi mumkin edi.

Muxtoriyat tugatilgach, Cho'lpon „Ilmiy kengash“, „Chig'atoy gurungi“, „Nashri maorif“ tashkilotlari va "Turon" teatrda adabiy, ilmiy-ma'rifiy ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. Ayni paytda sho'ro davlatining mustamlakachilik siyosati oqibatlarini fosh etuvchi she'r va maqolalar yozish bilan istiqloq uchun kurashda davom etdi. Ammo respublika madaniyat xodimlarining 2-qurultoyi 1927-yildan keyin Cho'lponga qarshi boshlangan kurash uni siyosiy faoliyatdan uzoqlashishga, hatto 1931-1935-yillarda Moskvaga qochib borib, musofirlikda yashashga majbur etdi.

Jadidlarga qarshi boshlangan kampaniya Cho'lponni ham chetlab o'tmaydi. Ta'qib va tazyiqlarga qaramay, u qizg'in ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadi. 30-yillarning boshida yana Moskvaga ketgan va SSSR Markaziy Ijroiya Komitetida tarjimon bo'lib ishlagan. Cho'lpon 1937-yil 14-iyulda qamoqqa olinadi va 1938-yil 4-oktabrda Toshkentda Bo'zsuv bo'yida qatl etiladi.

**Abdulla Qodiriy**(asosiy taxalluslari: Qodiriy, Julqunboy).–XX a. yangi o‘zbek adabiyotining ulkan namoyandasi,o‘zbek romanchiligining asoschisi; 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi.

Abdulla Qodiriyning 44 yillik umri, 20 yillik ijtimoiy va ijodiy faoliyat davri keskin kurashlar, ta’qibu tahdidlar ichida o‘tdi. Rostgo‘y adib sho‘ro davri haqidagi badiiy asarlarida, publitsistikasida sho‘ro voqeligiga xos ziddiyatlarni, siyosatdagi xato va kamchiliklarni xolis turib ko‘rsatishga jazm etdi. Ammo uning bu urinishlari birin-кетин zarbaga uchray boshladi. 1926-yil „Mushtum“da bosilgan „Yig‘indi gaplar“ hajviyasidagi tanqidiy mulohazalari uchun „aksilinqilobiy harakat qilganlik“da ayblanib qamoqqa olinadi, turli bo‘xtonlar bilan sudlanadi. Sudda u mardona turib o‘z sha‘nini himoya qiladi. „Obid ketmon“ qissasi ham sho‘ro mafkurachilariga ma‘qul kelmaydi, keskin tanqidga uchraydi; „ideologik buzuqliklar va xatolar“ga to‘la, „siyosiy tutruqsiz“ asar sifatida baholanadi. Yozuvchining tarixiy romanlarining esa asosiy mavzusi – millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg‘usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash g‘oyalari bilan yo‘g‘rilganligi tufayli ham hukmron mafkuraga zid asarlar bo‘lib chiqdi. Millat ruhini yorqin aks ettirgan, xalqning, o‘zga millat kitobxonlarining sevimli asarlariga aylangan bu romanlar sho‘ro davri siyosati uchun zararli kitoblar sifatida bot-bot qoralandi. 30-yillar o‘rtalariga kelib, bu mash‘um kompaniya avjiga chiqdi. G‘ofir G‘ulom, Abdulla Qahhor, Uyg‘un kabi shogirdlarining "donos"lari ortidan Abdulla Qodiriy 1937-yil 31-dekabr kuni xibsga olindi. 9 oylik qamoqdagi so‘roq-tergov, qiynoq, xo‘rlikdan so‘ng Cho‘lpon, Fitrat kabi maslakdoshlari bilan birga qatl etildi. Qodiriy xibsga olingach, asarlari „zararli“ sanalib o‘tda yoqildi, kutubxonalardan yo‘qotildi, ularni o‘qish ta‘qiqlandi.

Abdulla Qodiriy Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991), „Mustaqillik“ ordeni bilan taqdirlandi (1994). Abdulla Qodiriy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta‘sis etilgan. Toshkent Davlat Madaniyat institutiga, Toshkentdagi madaniyat va istirohat bog‘iga, respublikaning turli shaharlari ko‘chalariga, respublikamizdagi ko‘plab madaniyat muassasalariga uning nomi berilgan. „O‘tkan kunlar“ va „Mehrobdan chayon“ romanlari asosida kinofilmlar (1969, 1996, 1973) va ko‘p seriyali telefilmlar yaratilgan. Oilalarda farzand tug‘ilsa, Abdulla Qodiriy romanlari qahramonlari nomlarini qo‘yish rasm bo‘lgan. Eng muhimi, Abdulla Qodiriy, uning hayoti, ijodi haqidagi bor haqiqatni aytish, yozish, asarlarini asl holida „tahrirsiz“ chop etish uchun yo‘l ochilgan.

Milliy taraqqiyparvarlar musulmon ruhoniylarining fanga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lgan vakillarini qoraladilar. Taraqqiyparvarlar islom dini har bir musulmon erkak va ayollarning bilim -ga ega bo‘lishini ularning zimmasiga burch qilib qo‘yganligini keng targ‘ib qildilar. Jadidlar ilm -fanni taraqqiyotning va farovonlikning asosiy yo‘naltiruvchi kuchi ha da jaholatga qarshi kurashning birdan bir vositasi deb hisobladilar. Ularning fikriga ko‘ra chin musulmon bo‘lish uchun

diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlami, ayniqsa, matematika, fizika, ki yo, tibbiyot, tarix va boshqa fanlarni bilishlari zarur deb hisoblangan. Buni muqaddas Qur'on oyatlari va hadislar asosida tasdiqladilar

**Taraqquyparvarlar barcha sohalarni rivojlantirishga qodir mahalliy kadrlarni tayyorlash, zavod va fabrikalar qurib, mahsulotlarni o'lkaning o'zida ishlab chiqarishni zarur deb bildilar.**

1917-yildagi Rossiya fevral voqealari arafasida Turkiston jadidchiligi kuchli siyosiy harakatga aylandi. Birinchi jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, fevral voqealaridan keyin ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdilar. Jumladan, mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o'lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o'tkazish, Davlat Dumasidan o'lka aholisi sonidan kelib chiqib o'rin ajratish, milliy matbuot erkinligini tam'inlash kabilar. Ayni vaqtda, milliy-siyosiy partiyalar va tashkilotlar, masalan, «Sho'roi Islomiya», «Ittifoq» kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytda jadidlar tub yerli aholi jtimoiy tarkibining barcha qatlam vakillarini o'z ortidan ergashtira oldilar. Turkistonda jadidlar faoliyati mahalliy aholini ma'rifatli qilishga, ularda milliy o'zlikni anglashning kuchayishiga, ozodlik uchun kurashlarning ko'tarilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Jadidchilik harakati o'lkada padsho hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi turuvchi asosiy ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ldi.

1917-yil mart oyi boshlarida jadidlar tomonidan Toshkentda barcha erkparvar tashkilotlarning umumiy dasturiga ega bo'lgan yagona tashkilot —«*Musulmon markaziy sh o'rosi*» tuzildi. Uning ta'sis syezdida 350 delegat qatnashgan. Ular orasida ozarbayjonlar, tatarlar, turkmanlar, boshqirdlar kabi boshqa musulmon xalqlarining vakillari ham bo'lgan. Syezdda barcha delegatlar bo'lajak davlat Turkiston deb atalishi, uning tarkibiga Buxoro, Xiva va Turkiston general-gubematorligi kirishi kerak degan fikrni ma'qulladilar. Biroq Turkistonda 1917-yildagi oktabr voqealari va bolsheviklarning hokimiyatni egallashi jadidlarning o'z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular markazi Qo'qonda bo'lgan, *Turkiston muxtoriyati* deb atalgan mustaqil muxtor respublika e'lon qildilar.

72 kun yashagan bu muxtor respublika sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etildi. Natijada jadidlar ta'qibga uchradi va oxir-oqibat, 1937—1938-yillarda qatag'on qurboni bo'ldilar.